

Tasdiqlayman”
Buxoro davlat texnika universiteti
rektori _____ S.Siddiqova
2028 ME « _____ » iyun

Buxoro davlat texnika universitetida “Men sevgan asar” mavzusida eng yaxshi videoroliklar
tanlovi tashkil etish to'g'risidagi

NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom talabalar o'rtasida “Men sevgan asar” eng yaxshi videoroliklar tanlovi (keyingi o'rinlarda - Tanlov deb yuritiladi) tashkil etish va o'tkazish tartibini belgilaydi.
2. Buxoro davlat texnika universiteti talabalari tanlov ishtirokchilari hisoblanadi.

2-bob. Tanlovdan ko'zlangan maqsad va vazifalar

3. Tanlovni tashkil etishdan asosiy maqsad – talabalarni kitob o'qishga bo'lgan madaniyatini shakllantirish, o'zining kasbiy-mutaxassislik hamda badiiy-ma'naviy barkamolligini oshirish uchun kitobni tanlay olish va o'zi uchun zarurini o'qish; kitob ustida ishlash malakasini obdon o'rganib olish va unga chuqur amal qila bilish; kitobni mustaqil o'qiy bilish; o'qigan kitobning asosiy mazmunini talqin qila bilish, uning fusunkor olamiga kira bilish; o'qiganlaridan hayotiy xulosalar chiqarish; kitobning kerakli, zarur joylarini yon daftarchaga ko'chirib olish, notanish bo'lgan so'zlarni esda saqlab qolishga intilish; muntazam ravishda o'qish ko'nikmasiga ega bo'lish; kitob bilan muomalada eng qadrdon do'stingga munosabatda bo'lganday e'tibor bilan qarash; kitobni yaroqsiz holiga keltirmaslik uchun undan to'g'ri foydalana bilish; kitobni shoshilmasdan, o'ylab, diqqat-e'tibor bilan o'qish malakasiga ega bo'lish, o'qigan kitobni do'stlar bilan o'rtoqlashish, yaxshi kitobni ularga tavsiya qilib, uni boshqalar ham o'qib chiqishiga erishish; har bir yaxshi kitobni ilm qal'asining kaliti deb bilib, uning boqiy umrini ta'minlashdan iborat.

4. Tanlovni tashkil etish orqali quyidagi vazifalar bajarilishi ko'zda tutiladi:

- Oliy ta'lim muassasalarida kitobxonlikni rivojlantirish, ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish;
- yoshlarning kitobxonlik yuzasidan bilim, ko'nikmalarini oshirish;
- talabalarning “Men sevgan asar” mavzusidagi ijodiy ishlarini munosib baholab, ularni taqdirlash.

5. Tanlov quyidagi ketma-ketlikdagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- a) tanlovni o'tkazish haqida e'lon qilish;
- b) tanlov hakamlar hay'ati tarkibini shakllantirish va tasdiqlash;
- f) tanlov ishtirokchilaridan ijodiy ishlarini qabul qilish;
- g) tanlov hakamlar hay'ati tomonidan g'oliblarni aniqlash;
- j) tanlov tashkilotchilari tomonidan g'oliblarni taqdirlash.

3-bob. Hakamlar hay'atini shakllantirish tartibi

6. Tanlovga topshirilgan materiallarni baholash shakllantiriladigan hakamlar hay'ati tomonidan baholanadi.
7. Hakamlar hay'ati kollegial organ hisoblanib, kelishuvga asosan, universitet prorektorlari, kafedra mudirlari, Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi, bo'lim boshliqlari tarkibidan kamida 5 nafardan iborat tarkibda tashkil etiladi.
8. Hakamlar hay'atining tarkibi universitet rektorining tegishli buyrug'i bilan tasdiqlanadi.
9. Hakamlar hay'ati, ishtirokchilar tomonidan topshirilgan ijodiy ishlarini ko'rib chiqish va baholash ishlarini olib boradi.
10. Hakamlar hay'ati nomzodlar ijodiy ishlarini baholash, ularni ko'rib chiqmasdan qoldirish, g'oliblarni aniqlash haqida va boshqa qarorlarni qabul qiladi.
11. Tanlov hakamlar hay'ati a'zolarining kamida uchdan ikki qismi ishtirok etgan taqdirda qaror qabul qilishga vakolatli hisoblanadi.

4-bob. Tanlovni o'tkazish tartibi

12. Tanlov universitet miqyosida bir bosqichda quyidagi muddatlarda o'tkaziladi. Tanlov to'g'risida e'lon berish 2 iyul 2025 yil. Baholash va natijalarni e'lon qilish 30 iyul 2025 yil.
13. Tanlovning o'tkazish tartibi:
Tanlovning bosqichi universitet talabalari o'rtasida eng yaxshi videoroliklar tanlab olinadi va 5 nafardan iborat alohida hakamlar hay'ati a'zolari tomonidan baholanadi.
14. Ijodiy ishlar bir bosqichda ma'sul bo'lim tomonidan ishtirokchilarga manzili haqida oldindan ma'lum qilingan tegishli auditoriyada o'tkaziladi.

5-bob . Tanlov shartlari va mezonlari

15. Videoroliklar "Men sevgan asar" mavzusida bo'lib, qisqa metrajli badiiy, taqdimot ko'rinishida bo'lishi kerak.

Videoroliklarga qo'yiladigan talablar:

- a) davomiyligi 2 daqiqadan 5 daqiqagacha;
- b) fayl formati - ixtiyoriy videoformatda;
- v) tasvir sifati - 720r (1280x720) yoki 480r (854x480);
- g) hajmi 150 megabaytgacha bo'lishi kerak.

G'oliblarni aniqlashda hakamlar Hay'ati quyidagi mezonlarga e'tibor qaratadi:

- videorolikda ishtirokchining ma'lumotlari (*F.I.SH, fakulteti, yo'nalishi, guruhi*) to'liq ko'rsatishi;
- videorolik mazmuni tanlov mavzusiga mos kelishi;
- videorolikda korrupsiyani salbiy illat ekanligini aniq tushuntirib berish;
- ijodiy ishning mazmuni yoshlarni vatanparvarlik, ular qalbida vatanga sadoqat, milliy an'ana va qadriyatlarga hurmat tuyg'usini mustahkamlash, barkamol shaxs etib tarbiyalashga yo'naltirilgan bo'lishi;
- videorolik montajining sifati;

16. Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan videoroliklar qabul qilinmaydi va mualliflik huquqi buzilishiga yo'l qo'yilmaydi.

17. Ijodiy ishlar (ishtirokchilarning ijodiy ishlari) Hakamlar hay'ati tomonidan 5 ballik tizimda baholanadi.

18. Tanlov bo'yicha nomzodlarning yakuniy ballari teng bo'lib qolganda, Hakamlar hay'ati raisi ikkita ovoz berish huquqiga ega bo'ladi va hay'at raisi ovoz bergan ishtirokchi g'olib deb topiladi.

19. Tanlov yakunlari bo'yicha qabul qilingan hay'at qaroridan norozi bo'lingan taqdirda, uch ish kuni ichida tegishli hay'atga shikoyat qilinishi mumkin.

20. Hakamlar hay'ati a'zolarining xulosalari asosida Tanlov g'oliblari (1-, 2,-3-o'rin) aniqlanadi hamda boshqa ishtirokchilarga erishgan natijalariga ko'ra nominatsiyalar belgilanishi mumkin.

21. "Men sevgan asar" mavzusida "Eng yaxshi videoroliklar" tanlovi g'oliblari universitetning byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan quyidagicha taqdirlanadi. Shuningdek, Tanlovda yuqori (1,2,3) o'rinni egallagan talabalar universitetning maxsus diplomi va qolgan talabalar esa tanlovda faol ishtirok etgani uchun faxriy yorliqlari ham topshiriladi.

1-o'rin- 300000 so'm

2-o'rin- 200000 so'm

3-o'rin- 100000 so'm bilan taqdirlanadi.

- tanlovda g'olib bo'lgan nomzodlar shaxsan xabardor qilinadi.

22. Tanlov natijalarini e'lon qilish hamda g'oliblarni taqdirlash, tanlov hay'ati a'zolari, ishtirokchilar, ijodiy jamoatchilik, ommaviy axborot vositalari vakillari taklif qilingan holda amalga oshiriladi.

23. Nomzodlar tomonidan tanlovda ishtirok etish uchun taqdim etilgan materiallar bo'yicha izoh yoki sharh berilmaydi va ular egalariga qaytarilmaydi.

24. Tanlovni o'tkazish va uning g'oliblarini taqdirlash bilan bog'liq barcha xarajatlar universitetning byudjet va byudjetdan tashqari mablag'lari hamda homiylik manbalaridan qoplanadi.

25. Tanlov ishtirokchilarining tanlovlarda hamda taqdirlash marosimida ishtirok etish bilan bog'liq xarajatlari ularning o'z mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat
va ma'rifat bo'limi boshlig'i



Sh.T.Temirov